

**KESH-SHAHRISABZ VOHASIDA SHAHAR MADANIYATINING
SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

Bobojonov Behruz Bahodir o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: bobojonovbehruz00@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda Kesh-Shahrisabz vohasining qadimgi shahar sifatida shakllanishi, uning tarixiy markazi joylashuvi xususidagi ilmiy munozaralar arxeologik qazishmalar va numizmatik ashyolar ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Yozma hamda moddiy manbalar uyg'unligida vohaning kamida 2700 yillik tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Kesh, Shahrisabz, Kitob, So'g'd, Nautaka, Gava Suguda, Balandtepa (Zindontepa), arxeologik yodgorlik, numizmatika, shahar madaniyati.*

O'zbekistonning qadimiy shaharlari uzoq yillardan buyon tarixchi va sharqshunoslar, arxeolog va etnograflar diqqat markazida turgan muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bugungi kunda aksariyat qadimiy shaharlarning izlari yemirilgan tepaliklar — arxeologik yodgorliklar, xarobalar ostidagi inshoot, ibodatxona yoxud saroy qoldiqlari tarzida saqlanib qolgan. Rivojlanish va tushkunlik bosqichlaridan izchil o'tib bizgacha yetib kelgan bunday yodgorliklar yurtimizda kechgan qadimiy tarixiy jarayonlar to'g'risida boy ma'lumot beradi. Ana shunday qadimiy shaharlar sirasiga Kesh-Shahrisabz vohasi ham kiradi.

V. V. Bartold, M. Ye. Masson, G. A. Pugachenkova, O. I. Smirnova, S. K. Kabanov hamda Z. I. Usmonova singari yirik olimlarning fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan [1]. Yozma manbalar va numizmatik ashyolar tahlili orqali ular Kesh-Shahrisabzning shakllanish jarayoniga doir turli ilmiy



qarashlarni ilgari surganlar. Keshning tarixiy markazi qayerda joylashgani masalasi bugungi kungacha ilmiy bahslarga sabab bo'lmogda. M. Ye. Masson va G. A. Pugachenkova fikriga ko'ra, hozirgi Shahrisabz o'rnidagi manzil XII asrdan keyingi davrlarda shahar maqomiga ega bo'lgan [2;]. S. K. Kabanov esa Shahrisabz IX–X asrlardayoq shahar sifatida shakllanganini ta'kidlaydi [6]. Olimlarning qayd etishicha, Kesh antik va ilk o'rta asrlarda Oqsuvning o'ng sohilida, hozirgi Kitob o'rnida shakllana boshlagan va VII asr o'rtalarida So'g'dning (Qashqadaryo hamda Zarafshon vohalari) markaziga aylangan. M. Ye. Masson Kitob aholisining ilk o'rta asrlarda zich joylashganiga tayanib, Kesh markazi aynan Kitob o'rnida bo'lganini qat'iy ilgari suradi [3]. O'tgan asrning 80-yillarida Shahrisabz tarixiy markazi hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu masalaga oydinlik kiritdi. Shaharning qal'a devori yaqinidagi janubi-g'arbiy burchakda uzunligi taxminan 200 m, qalinligi 2,5 m bo'lgan madaniy qatlam, shuningdek Oqsaroy yodgorligining shimolidagi qismda hamda shahar markazidagi Chorsu atroflarida ilk o'rta asrlarga oid madaniy qatlamlar aniqlangan. Shahar chegarasidagi Balandtepa (Zindontepa), Qalqontepa va boshqa qator yodgorliklarda ham shu davrga oid ko'plab topilmalar qayd etilgan. Ushbu moddiy-madaniyat namunalari Xitoy yozma manbalari («Beyshi»)da tilga olingan markaziy Keshga o'xshash, murakkab tuzilishli yirik manzilgoh mavjudligidan dalolat beradi.

Numizmatik ashyolar ham Shahrisabzning shahar sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi. Shahrisabz hududidagi qazishmalarda Kesh hukmdori Ahurpat zarb ettirgan beshta tanga topilgan. Topilmalarni tadqiq etgan O. I. Smirnova xitoy va arab muarrixlari manbalariga tayanib, VII–VIII asrlardagi Kesh hukmdorlari

boshqaruvining taxminiy xronologik jadvalini yaratdi hamda tangalarning muomalada bo'lgani, savdo-sotiq jarayonlarida ishlatilganini asosladi [4]. V. A. Livshits esa tangalardagi so'g'diy bitiklarni o'qib, ularda «Kesh hukmdori» iborasi bitilganini aniqladi [8]. E'tiborga molik jihat shuki, Kitob hududidan «Kesh hukmdori» bitikli tangalar topilmagan. Bu esa aynan Shahrisabz tanga-pul muomalasiga asoslangan yirik savdo shahri bo'lganini, Kitob hududida esa (bek qal'asi o'rnida) dehqonlar saroyi kabi manzilgohlar faoliyat yuritgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Z. I. Usmonovanning tadqiqotlariga ko'ra, dastlabki Barknon manzili V–VI asrlarda hozirgi Shahrisabz shahri o'rnida mavjud bo'lgan; tarixiy markazdan 300 m shimoldagi Balandtepa (Zindontepa) xarobalari o'rnida ilk shahar qad rostlay boshlagan [7]. Bu hududda ilk o'rta asrlardayoq mahalliy hukmdor mustahkam qasr va zardushtiyar ibodatxonasini bunyod ettirgan. Hatto XIX asrgacha aholining ayrim vakillari bu yerda otashparastlik marosimlarini va har yili Navro'z kunlari xalq sayillarini o'tkazib kelgan. Shahar hududi VII–VIII asrlarda ancha kengayib, IX–X asrlarda muhim savdo-hunarmandchilik markaziga aylangan. Demak, bir muddat So'g'd markazi darajasida bo'lgan Kesh VI–VII asrlardayoq Shahrisabz hududida mavjud bo'lgan va keyingi davrlarda taraqqiy etgan. M. Ye. Masson Zindontepa o'rnida VI–VIII asrlarga oid baland poydevorli uy-qo'rg'on mavjud bo'lganini qayd etgan; yodgorlikning hozirgi balandligi 15–20 m.ni tashkil etadi [3]. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, tepa o'rnida XIV–XV asrlarda shahar zindoni faoliyat ko'rsatgan, shu bois yodgorlik Zindontepa nomini olgan. O'rganilgan arxeologik va yozma manbalar tahlili sharqiy Qashqadaryo vohasidagi tarixiy viloyat va uning markazi har bir tarixiy davrda turli nom bilan atalganini



ko'rsatadi: mil. avv. IX–VIII asrlarda — Gava Suguda, mil. avv. VII–IV asrlarda — Nautaka, VI–XV asrlarda esa Kesh. Vohaning ilk markazi sifatida mil. avv. VIII asrda Uzunqir yodgorligi shakllanib, mil. avv. III asrgacha rivojlangan, keyinchalik shahar faoliyati Kitob-Shahrisabz hududi bilan bog'liq holda davom etgan.

Shunday qilib, yozma manbalar, numizmatik ashyolar va arxeologik dalillar uyg'unligi Nautaka–Kesh–Shahrisabz shahrining tarixiy taraqqiyot davri kamida 2700 yilni tashkil etishini asoslaydi. Bu xulosa Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Marv tarixi bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalarida Shahrisabz-Kitob vohasi qadimiy shahar markazi sifatida e'tirof etilishi bilan ham uyg'unlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Сочинения. Т. III. Работы по исторической географии. — М.: Наука, 1965. — 711 с.
2. Пугаченкова Г. А. Шахрисябз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XLIX. Гуманитарные науки. Кн. 6. — Ташкент, 1954. — С. 31–50.
3. Массон М. Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времён. — Ташкент: Фан, 1973. — 96 с.
4. Смирнова О. И. Каталог монет с городища Пенджикент (материалы 1949–1956 гг.). — М.: Изд-во восточной литературы, 1963. — 124 с.
5. Смирнова О. И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. — М.: Наука, 1981. — 547 с.



6. Кабанов С. К. Нахшеб на рубеже древности и средневековья (III–VII вв.). — Ташкент: Фан, 1977. — 132 с.
7. Усманова З. И. Раскопки на городище Шахрисабз // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). — Ташкент: Фан. — Вып. 18.
8. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2008. — 416 с.